



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **OILAVIY ANʼANALARDA AYOLLAR VA ULARNING HUQUQLARI MASALASINING AKS ETISHI**

**Nafiddinova Xosiyat Ravshanovna**  
Buxoro davlat universiteti, dotsent (PhD)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada jamiyatimizda ayollar va ularning huquqlari toʻgʻrisida fikrlar bildirilgan. Ayniqsa, bizning mintaqamizda ayol voyaga yetguncha otasiga, oila qurgach eriga, qariganda esa oʻgʻliga qul boʻladi degan xurofiy qarash uzoq davr mobaynida hukmron boʻlgani haqida qarashlar ilgari surilgan. Shuningdek, zamonlar oʻtishi bilan oila va jamiyatda ayollar rolining oʻzgargani taʼkidlangan. Garchi boshqaruvchilar boʻlgan erkaklar bilan teng huquqqa ega boʻlmasalar-da, ayollar ham jamiyatda oʻz oʻrniga ega boʻlgani tilga olingan.

**Kalit soʻzlar:** oila, anʼanalar va urf-odatlar, milliylik, “qalin puli”, “sut puli”, mahr, levirat, sororat, urugʻ ichida nikoh, “xupo”, “kutuvo”.

## **ОТРАЖЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ЖЕНЩИНЫ И ИХ ПРАВ В СЕМЕЙНЫХ ТРАДИЦИЯХ**

**Нафиддинова Хосият Равшановна**  
Бухарский государственный университет, доцент (PhD)

### **Аннотация**

В статье представлены взгляды на женщин и их права в нашем обществе. В частности, утверждается, что в нашем регионе долгое время господствовал предрассудок, согласно которому женщина является рабыней отца до совершеннолетия, мужа после рождения ребенка и сына в старости. Также отмечается, что роль женщин в семье и обществе со временем менялась. Отмечается, что, хотя женщины и не имеют равных прав с мужчинами, занимающими руководящие должности, они также занимают своё место в обществе.

**Ключевые слова:** семья, традиции и обычаи, народность, «жирные деньги», «молочные деньги», приданое, левиратный брак, сорорат, внутриродовой брак, «хупо», «катуво».

## **REFLECTION OF THE ISSUE OF WOMEN AND THEIR RIGHTS IN FAMILY TRADITIONS**

**Nafiddinova Xosiyat Ravshanovna**  
Bukhara State University, Associate Professor (PhD)

### **Abstract**

This article presents views on women and their rights in our society. In particular, it is argued that in our region, the prejudice that a woman is a slave to her father until she reaches adulthood, to her husband after she has a family, and to her son when she is old has prevailed for a long time. It is also noted that the role of women in the family and society has changed over time. It is noted that although they do not have equal rights with men who are managers, women also have their place in society.

**Keywords:** family, traditions and customs, nationality, "fat money", "milk money", dowry, levirate marriage, sororate, marriage within the clan, "hupo", "kutuvo".

Oila — bu er-xotin, ularning bolalari va eng yaqin tugʻishganlaridan iborat, birga yashovchi kishilar jamoasi, yaʼni xonadondir. Uning boshqa maʼnolari bir-biriga yaqin boʻlib, umumiy maʼnoda birlashgan kishilar, xalqlarni anglatadi. Oila — nikohga yoki tugʻishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning aʼzolari roʻzgʻorining birligi, oʻzaro yordami va maʼnaviy masʼuliyati bilan bir-biriga bogʻlangan [1]. Oila — jamiyatning bir boʻlagi, boshlangʻich guruhi, er-xotin va qarindoshlik aloqalari ittifoqi asosida tuzilgan shaxsiy hayotning muhim shaklidir.

Maqsad va uni asoslash. Buxoro vohasi aholisining etnik munosabatlari, urf-odatlari, anʼanalari, oilaviy munosabatlari ham oʻziga xos bir qator xususiyatlarga ega. Unda ayol va erkak oila etnoanʼanalarini asrashga turlicha yondashishi, bu oʻziga xosliklar ularning etnologik tuzilishidagi farqlar, uzoq rivojlanish jarayonida shakllangan tasavvurlari va stereotiplari bilan bogʻliqligi taʼkidlanadi. Ayol ishlab chiqarish, mehnat jarayonlarining bosh subyekti sifatida namoyon boʻlmasa-da, ularga bilvosita taʼsir etgan. Oilada mehnat taqsimotini ham, oilaviy munosabatlarni ham erkak belgilaydi, degan tushuncha ustunlik qilgan. Hatto ongi va bilimi yuksak, insoniyatga ibrat boʻlib kelayotgan donishmandlar, faylasuflar va aql egalari

ham ayolning oiladagi, jamiyatdagi roliga salbiy fikr bildirishdan to'xtamagan. Oilada kim hukmron bo'lishi kerakligi masalasini qadimgi yunon faylasuflari davridayoq keng muhokama qilishgan, biroq undan biror natija chiqmagan. Fales, Platon va Aristotel xotin-qizlarni "idora etiluvchilar"ga ajratgan bo'lsa, Sofokl davlatni ayollar boshqarishini xohlagan. Bunday ziddiyatli yondashuvlar diniy-dogmatik qarashlarning yuzaga kelishi bilan yanada keng tarqalgan. Barcha dinlar patriarxal boshqarish tarafdorlari sifatida ayollarga "uy bekasi" sifatida qarashga moyil. Ezopning fikricha, "Uch ofat bor — ular olov, ayol va dengiz". Aristotel fikricha, "Ayol tabiatdan buzilgan erkakning qusurli nusxasidir". A. Shopengauer "Ayol butun umri bo'yi go'dak bo'lib qoladi", deb hisoblaydi. F. Nitsche esa: "Ayol oldiga bormoqchimisan, qamchini unutma!" deydi [2]. Mazkur salbiy fikrlar uzoq davrlar mobaynida ayolning oiladagi va jamiyatdagi rolini kamsitishga asos bo'lganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu esa davlatlarda va jamiyatlarda ming yillar davomida gender tenglik to'g'risidagi g'oyalari aslida hech qanday qiymatga ega bo'lmaganini ko'rsatgan. To'g'ri, xususiy mulkning paydo bo'lishi va patriarxal munosabatlarning avj olishi bilan ayolning roliga bo'lgan qarashlar ham o'zgargan. Bunda ayollarning aybi yo'q. Bunday munosabatlar mutlaqlashtirilgan davlatlarda ayollarga qul, sotib olinadigan predmet sifatida qarash real voqelik bo'lgan. Natijada oilani demokratik institut ekanini e'tirof etishga hali kishilik jamiyati tayyor bo'lmagan. Hatto er-xotin o'rtasidagi muhabbatni, nikohni "yuksak axloqiy qadriyat" sifatida e'zozlashga tayyor I. Kant ham oilaviy hayotning erkak hukmronligiga qurilishini yoqlaydi [2].

Bu masalada Mang'itlar hukmronligi davrida Buxoro amirligida ham xuddi shunga o'xshash qarashlar keng tarqalgan edi. Ayniqsa, bizning mintaqamizda ayol voyaga yetguncha otasiga, oila qurgach eriga, qariganda esa o'g'liga qul bo'ladi, degan xurofiy qarash keng tarqalgan. Garchi muqaddas dinimiz bo'lmish islom dinida ayollar alohida e'zoz bilan tilga olingan va ularga muloyim munosabatda bo'lish kerakligi ta'kidlangan bo'lsa-da, real hayotda odatda buning aksi kuzatilgan. Hatto nikohning asosiy sharti sifatida e'tirof etilgan qizning roziligi ham aksariyat hollarda ayollardan so'ralmagan. Uning o'rniga otasi javob bergan va bu ko'p hollarda manfaatlar to'qnashuviga asoslangan.

Lekin shunday bo'lishiga qaramay, ayollar jamiyatda va oilaviy munosabat, an'analarda o'z o'rnini saqlab qolishga harakat qilgan. Aynan shuning uchun ham qiz chiqarish, o'g'il uylantirish, kimlar bilan qudachilik qilish kabi an'analarni ayollar o'z zimmasidagi vazifa deb biladi. Qadimdagi urug'chilik tuzumiga borib taqaluvchi bu an'ana hamon o'z mohiyatini yo'qotmagan, ayniqsa, an'anaviy jamiyatlarda ularga rioya etish ijtimoiy norma, oila amal qiladigan qadriyat hisoblanadi.

Tadqiqotlar nikohga kirishish arafasida ikki tomon orasida mulk oldi-berdisi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hamma zamonlarda va hududlarda nikohning asosiy elementi sifatida namoyon bo'lganini ko'rsatadi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, XX asr boshlarida Eronda yashovchi osetinlar kelinga 18 sigir berishgan, beva xotiga esa uning yarmi to'langan. Turkmanlarda yosh qizcha 5 dan 400 rupiygacha baholangan, beva xotiga ham shuncha to'langan. Yoki yosh qizchaga 5 tuya, yosh beva xotiga esa 50 dan 100 gacha tuya berilgan. O'rta Uralda oriq qiz 5 rubl, semizi esa 25 rubl turgan. Hatto saal frank, ripuar, burgund, anglosakson huquqlarida kelin uchun pul to'lash shartligi ko'rsatilgan [2].

Nikoh insoniyat tarixining eng qadimgi marosimlaridandir. Bu masalaga islom dinida ham alohida o'rin ajratilgan. Nikoh shunchaki urf-odat yoki marosim bo'lmasdan, balki payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning sunnatlari hamdir. Xalqimizda nikoh eng avvalo, Arshi a'loda o'qilur, keyin esa yerda, deb behuda aytilmagan. Ota-bobolarimizning azaliy tushunchalari bo'yicha, nikoh — ilohiy ahd, oila — muqaddas qadriyatdir deb tushunilgan [3].

Nikohga kirishning ikki asosiy sharti bo'lib, birinchisi nikohlantiruvchilarning roziligi bo'lsa, ikkinchisi ularning nikoh yoshiga yetganligidir. Turli dinlarda va dunyoviy davlatlarda nikoh yoshi turlicha belgilangan. Jumladan, islom dinida shariat bo'yicha qizlar 9 yoshda, o'g'il bolalar 15 yoshda nikohga kirishiga rozilik berilgan bo'lsa, katoliklar uchun bu yosh mos ravishda 12 va 14 yosh deb belgilangan. Protestant cherkovi uchun esa har ikkovi uchun 14 yosh nikoh yoshi deb belgilangan. Dunyoviy davlatlardan Fransiyada ayollar uchun 15, erkaklar uchun 18, Italiyada ayollar uchun 14, erkaklar uchun 16, Germaniyada ayollar uchun 16, erkaklar uchun 21 yosh deb belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq bizning davlatimizda qizlar va yigitlar uchun nikoh yoshi 18 yosh deb belgilangan [4]. Ko'p hollarda nikohga kirishda levirat, sororat, urug' ichida nikoh holatlari uchraydi. Levirat (lotincha levir — qayni, erning ukasi), yesir olish — qadimiy nikoh odatlaridan biri, beva qolgan yanganing qaynisiga erga tegishi. Ko'pchilik xalqlarda urug'chilik tuzumi davrida tarqalgan bo'lib, Kavkaz, O'rta Osiyo xalqlari, yahudiylar va boshqalarda ham saqlanib qolgan. Levirat odati bo'yicha uka uylangan bo'lsa ham marhum akaning beva qolgan xotiniga uylanishi shart bo'lgan. Ayni holatda uka o'lsa, aka uning bevasiga uylangan. O'zbeklarda "Aka o'lsa yanga meros, uka o'lsa kelin meros" maqolida ham yuqoridagi mazmun

aks etgan. Bevani uyiga qaytarib yuborish voha o'zbeklarida ayb sanalgan. Bevani begonaga uzatishni o'zlariga uyat hisoblashgan. Agar beva rozi bo'lmasa, majburlab roziligini olish hollari ham uchragan. Marhumning bevasi, mol-mulki, farzandlari tarbiyasi begona erkak qo'lga o'tib ketmasligi va hali uylanmagan uka qalin to'lab, ortiqcha sarf-xarajat qilib uylanmasligi uchun nikohning levirat shakliga ruxsat berilgan. Levirat nikoh shakli XX asrdan so'ng xalqimiz turmushidan butkul chiqib ketgan [5].

Sororat (lot. soror — singil) — nikoh odatlaridan biri. Erkakning bir necha opa-singillarga uylanishi. Ba'zi olimlar sororat ibtidoiy jamoa davrida urf bo'lgan guruhli nikohning qoldig'i deyishadi. Bu turdagi nikohlar Osiyo, Amerika, Afrika va Okeaniyaning ko'pgina xalqlarida ham mavjud bo'lgan. Sororat ba'zi davlatlarda xotini vafot etgan erkakning o'z qayinsinglisiga uylanishi tarzida saqlangan. Ko'pincha bu odatni yetim bolalar tarbiyasi uchun g'amxo'rlik bilan bog'laydilar. O'zbeklarda ham nikohning ushbu turi saqlangan bo'lib, tub ildizi mulk bilan bog'liq edi. Chunki taomilga ko'ra, ayol vafot etgandan keyin erkak qayta uylanishi uchun yana qalin to'lashi lozim bo'lgan. Marhumaning singlisiga uylanganda esa deyarli qalin to'lamagan va faqat to'y xarajatlari berilgan, xolos. Shuningdek, marhumaning farzandlari yetimlik azob-uqubatini tortmasligiga ham e'tibor berilgan [6].

Ba'zi xalqlarda esa, masalan, qozoqlarda "yetti avlod nikoh to'sig'i" qoidasiga amal qilinib, u qabul qilinmaydigan jinoyatlar sirasiga kiritilgan [7]. Agar bunday holat yuzaga kelsa, nikohning qonuniyligi masalasi oqsoqollar kengashi yoki oiladagi katta qarindoshlar tomonidan hal qilinadi. An'anani tashuvchilarning o'zlari bu odatni buzishni milliy degeneratsiya yo'li va genetik kasalliklar manbai deb bilishadi. Aksariyat zamonaviy yoshlar yettinchi avlodgacha bo'lgan qarindoshlar o'rtasida nikohni taqiqlash odatini tabiiy, tarixiy jihatdan o'rnatilgan qonun, ya'ni "ajdodlar xotirasi" deb bilishadi va uni buzish ehtimolini ham o'ylamaydilar.

Marosimlar ichida nikoh marosimi o'zining alohida tarixi va xususiyatlariga ega. Nikoh, eng avvalo, o'zida umuminsoniy qadriyatlarni mujassamlashtiruvchi, bir qancha kompleks urf-odatlarini o'z ichiga olgan marosimdir. Nikoh marosimlarining tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Nikoh insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab, maxsus urf-odat orqali oilaning bardam va mustahkam bo'lishiga qaratilgan, jamoatchilik tomonidan nishonlanib, dastavval odat, keyinchalik yozma tarzda qonunlashtirilgan marosimdir [8].

Dunyoviy davlatlarda nikoh ma'lum bir hujjat asosida tuziladigan shartnomadir. Bu masalada Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida ham alohida yondashuv bo'lgan. Mang'itlar hukmronligi davrida oila munosabatlari islom huquqi va shariat tamoyillariga tayangan va boshqa islom mamlakatlaridan deyarli farq qilmagan. "Shariat" — musulmon diniy huquqi bo'lib, u musulmonlarda faqat diniy masalalarni emas, oilaviy, jamoaviy va davlat masalalarini ham o'z ichiga olgan. Ularni odatda, biz olti guruhga bo'lamiz. Undan ikkinchi guruh nikoh va ajralish, meros masalalariga bag'ishlangan [9]. Buxoro amaldorlarining nikohga kirishga ruxsat so'rab amirga yozgan iltimosnomasi ham bu borada huquqiy asos mavjudligini ko'rsatadi [10].

Buxoro amirligida nikohga kirish asosan mahr va qalinni to'lash bilan bog'liq bo'lgan. Umuman olganda, diniy mamlakatlarda islom huquqi bo'yicha faqatgina mahr to'lovi tan olingan. Mahr — bu nikoh sovg'asi bo'lib, to'y kuni qayliq tomonidan kelinga berilishi lozim bo'lgan sovg'a turi. "Mahr — bu nikoh uchun to'lov bo'lib, u xotinning moddiy hamda ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan haq-huquqi hisoblanadi" [11]. Mahr (arabcha sadoq) — teng huquqli nikoh tuzilgan paytda kuyov kelinga beradigan mulk hisoblanadi. Mahr to'lash nikohning asosiy sharti hisoblanadi [12]. Xotin kishi mahri pul shaklida yoki narxi 10 tangadan kam bo'lmagan miqdordagi mulk shaklida talab qilishga haqli bo'lgan. Bunday mulklar sirasiga ko'chmas mulk, zeb-ziynat ashyosi, uy hayvonlari va ulardan foydalanish huquqi ham kirishi mumkin. Mahrning eng ko'p miqdori chegarasi belgilanmagan. Mahrning o'lchami tomonlar roziligi bilan ham belgilanishi mumkin bo'lib, nikoh tuzilishi jarayonida ma'lum qilingan. Mahr ayol kishining shaxsiy mulki hisoblangan.

Shuningdek, mahr to'y kuni kuyov tomonidan kelinga berilishi lozim bo'lgan sovg'a-hadya turi sifatida ham qabul qilinadi. Biroq islom diniga ko'ra harom qilingan ichimliklar va hayvonlar hamda ularning go'shtlari mahrga berilmaydi. Bu kabilar mahrga berilgan bo'lsa, mahrsiz nikohlangan hisoblanadilar. Nikohlanuvchi ayol esa qaytadan mahr olishga haqli bo'lgan. Buxoro vohasida turli sabablar bilan ikki marta mahr olinib, bir insonga nikohlangan insonlar tadqiqotlar davomida kuzatildi. Bunga sabab sifatida ba'zi kishilar nikohlanuvchi qiz tomonning noroziligi yoki kelinning yoshligini ko'rsatib o'tadilar [13]. Mahrning o'lchami tomonlar roziligi bilan ham belgilanishi mumkin bo'lib, nikoh tuzilishi jarayonida ma'lum qilingan. Mahri bo'lib-bo'lib to'lashga ham ruxsat etilgan. Mahr ayol kishining shaxsiy mulki hisoblangan. Qiz o'zining mahri bilan, odatda ashyo ko'rinishidagi shaxsiy mulki

bilan erining uyiga tashrif buyurgan. Mahr uning shaxsiy mulki bo'lganligi uchun uni ajralish paytida o'zi bilan olib ketish huquqiga ega bo'lgan [14].

Buxoro amirligi hududida yashovchi o'zbeklar va boshqa xalqlarda mahrdan tashqari shariat bo'yicha tartibga solinadigan, nikohga kirishning qo'shimcha sharti sifatida tan olingan majburiy to'lov turi — qalin puli mavjud edi. "Qalin" turkiy so'z bo'lib, "qiz uchun to'lanadigan haq" yoki "kelin tomonga beriladigan moddiy yordam" degan ma'nolarni anglatadi [15]. Qalin kuyov tomonidan kelina to'lanmasdan, balki uning ota-onasiga berilgan. Qalin puli kelinning ota-onasiga uni tarbiya qilish, boqish va boshqa xarajatlarni qoplash uchun to'lanadigan to'lov turi sifatida qabul qilingan. Qalin pulining miqdori o'troq xalqlarga nisbatan ko'chmanchi xalqlarda ko'p bo'lgan. Amirlik shaharlarida qalin puli pul tariqasida berilgan bo'lsa, qishloq joylarida qalin puli chorva va bug'doy yoki boshqa bir mulk shaklida to'langan. Qalin pulini belgilashda, albatta, oilaning moliyaviy ahvoli inobatga olingan. Qalin puli qoida bo'yicha nikoh tuzilishi paytida to'langan. Biroq voyaga yetmaganlar o'rtasida tuziladigan nikoh shartnomalari bo'yicha va moddiy ahvoldan kelib chiqib, qalin pulini bir-ikki yilga uzaytirib to'lash mumkin bo'lgan. Bunday tartibdagi qalin puli odat huquqiga asosan qismlarga bo'lib, har yili Ramazon bayrami, ya'ni Ro'za hayiti arafasida to'langan. Qalin ijrosi hamma joyda ham ta'minlanmagan. Olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida Buxoro vohasida yashovchi aholining kattagina qismi to'ylar qalinsiz bo'lganligini qayd etishdi. Lekin to'ydagi barcha marosimlarni, jumladan, kelinning uyida bo'ladigan marosimlarni o'tkazish uchun ketadigan xarajatlarning asosiy qismi kuyov tomonning zimmasida ekanligini axborotchilar ta'kidlashdi [16].

Buxoro amirligida nikohdan ajralishning sababi, aybi va boshqa holatlariga qarab, mahr va qalin masalasi hal etilgan. Agar nikohdan ajralish o'rinli asoslarsiz erning xohishi bilan amalga oshirilsa, er xotiniga mahrnı qaytarib berishga majbur bo'lgan. Undan tashqari, er xotini dan qalin pulini qaytarib olish huquqidan mahrum bo'lgan. Mahr nikoh sovg'asi bo'lganligi uchun ham kelajakda ajralish mobaynida xotinni ta'minlash vazifasini bajargan.

Agar nikohdan ajralish xotinning aybi bilan bo'lsa, u mahrga bo'lgan huquqdan mahrum bo'lgan va eriga uning uchun to'langan qalinni qaytarib berish majburiyatini olgan.

Buxoro vohasida ko'p hollarda qalin o'rniga "sut puli" to'lovi amalga oshirilgan. Qalindan farqli ravishda "sut puli" otaga emas, onaga to'langan. U ko'proq ramziy ma'noga ega bo'lib, miqdori ham shunga yarasha oz bo'lgan [17].

Demak, mahr shariatga asoslangan islomiy to'lov bo'lsa, qalin ko'proq oilaning iqtisodiy ahvolini butlash bilan bog'liq bo'lgan to'lov hisoblanar ekan. Aslida qalin olish va berish odati islom dinigacha turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan.

Nikoh marosimlarining eng asosiy sharti bu, albatta, nikoh xutbasining o'qilishi hisoblanadi. Yetmish yildan ortiq davom etgan sobiq sho'ro tuzumi davrida mulla tomonidan shar'iy o'qiladigan nikoh taqiqlangan bo'lsa-da, u musulmonchilikning muhim sharti sifatida voha aholisi orasida saqlanib qolgan. Nikohning o'qilish vaqti ko'pchilikdan sir tutilgan va nikoh guvohlar ishtirokida yashirincha o'qilgan. Nikoh o'qilishidan oldin barcha qulflar va tugunlar ochib qo'yilgan. Marosim guvohlari ham bir nikohli, uvali-juvali, ozoda va pokiza bo'lishlariga ahamiyat berilgan. Kuyov tomondan kelina beriladigan mahr to'lovi ham aynan nikoh xutbasi o'qilgandan keyin hadya qilingan.

Buxoro yahudiylari orasida nikoh xutbasi tantanali visol oqshomidan keyin tashkil qilingan. Nikoh o'qitish ularda "xupo" nomi bilan yuritilgan [18]. Nikoh ravvin, ya'ni yahudiy ruhoniysi tomonidan o'qilgan. Nikoh o'qilgach, bir-biriga nikoh uzugini taqishgan. Shundan keyin nikoh qayd etilgan hujjat — "kutuvo" taqdim etilgan. Kutuvoda, shuningdek, erning ayol va oila oldidagi majburiyatlari qasamyodi ham aks etgan.

"Nikoh to'yini o'tkazishda kelin tomonning xarajatlari ko'pmi yoki kuyov tomonningmi?" deb berilgan savolga dala tadqiqot materiallari natijalarini umumlashtirib aytishimiz lozimki, o'tgan asrning so'nggi choragigacha kuyov tomonning xarajatlari ko'proq bo'lgan, 2000-yillardan keyin esa har ikkala tomonning xarajatlari tenglashganini ko'rish mumkin. Hozirgi kunda esa ba'zi holatlarda kelinning haddan tashqari ko'p sep olib kelishi natijasida kelin tomonning xarajatlari oshib ketmoqda [19]. Aholining asosiy qismi kuyov tomon to'yni qilsa, kelin tomon uyni to'ldirishini qayd etishdi.

Yakuniy qism. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda ayollarni jamiyatning yarmi deyishadi. Yo'q, u jamiyatning hammasidir. U jamiyatning yarmi bo'lib qolgan yarmini tarbiyalaydi. Ayolning diniy, vataniy va ijtimoiy ahamiyati judayam buyuk. U ona va buvidir. U xotin, singil va qizdir. U murabbiya, ziyokor va ezgulik kuychisidir. Agar ularni hayotga tayyorlashni eplay olsak, umumiy uyimiz binosiga hissa qo'shgan bo'lamiz. Ahmad Shavqiy aytganidek: "Ona madrasadir. Agar uni munosib

tayyorlay olsang, qoni toza xalqni tarbiyalaysan!” Dunyo davlatlarida bugungi kungacha davom etayotgan ayollar, ularga hurmat-e’tibor va tenglik masalalari Buxoro amirligida ham alohida ahamiyatga ega bo’lgan. Garchi boshqaruvchilar bo’lgan erkaklar bilan teng huquqqa ega bo’lmasalar-da, ayollar ham jamiyatda o’z o’rniga ega bo’lgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. Bo’riyev O., Saidov A. Oila // O’zME. 6-jild. Miriy – Parkhish / tahrir hay’ati A. Abduvohitov va b. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. – B. 469.
2. Гитин В. Г. Эта покорная тварь — женщина. – М.: АСТ, 2001. – С. 449–450.
3. Nosirxo’jayev S. va boshqalar. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent, 2001. – B. 184.
4. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma’naviyati. – B. 104.
5. O’zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
6. Kislyakov N. A. Ocherki po istorii semi i braka u narodov Sredney Azii i Kazakhstana. – L., 1969.
7. Стасевич И. В. Социальный статус женщины у казахов: традиции и современность. – СПб.: Наука, 2011. – С. 109.
8. Ashirov A. O’zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – Toshkent, 2007. – B. 73.
9. Остроумов Н. П. Сарты. – Ташкент, 1908. – С. 260.
10. O’zMDA. I-126 jamg’arma, 1-ro’uxat, 1858-ish.
11. Boymirzayev R. Islom huquqi. – Namangan, 2010. – B. 68.
12. Islom ensiklopediyasi / tahrir hay’ati A. Mansurov, A. Tulepov, A. Tursunov va b. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – B. 301.
13. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati, Vobkent tumani, So’fidehqon qishlog’i. 2022 yil sentyabr.
14. Ильясов Ф. Н. Сколько стоит невеста // Социологические исследования. – М., 1991. – № 6. – С. 68.
15. Mahmud Qoshg’ariy. Devoni lug’atit turk. 3-tom. – Toshkent, 1963. – B. 382.
16. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati: Qorako’l, Olot, Vobkent, Jondor tumanlari, Buxoro shahri. 2021 yil sentyabr.
17. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati: Shofirkon, Romitan tumanlari. 2020 yil iyun.
18. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati, Buxoro shahri. 2022 yil sentyabr.
19. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati: Buxoro shahri, Vobkent, Jondor, Qorako’l tumanlari. 2021 yil.